

Doktor voy jonim

Dilgir doktor Voyjonimga,
Qulay daraxt soyasi.
Shifo izlab kelganlarning
Shodligi nihoyasiz.
Navbat kutar Sigir, Bo'ri,
Qo'ng'iz, hatto Ayiqvoy.
Chuvalchang ham shu yerda,
Safda turar hayiqmay.
Bemorlarning anchasini
Kutganlarning barchasini
Davoladi Voyjonim.

“Voy-voy chaqib oldi Ari
Turqi sovuq”
Olapar der: - Burnimni
Cho'qib oldi o'jar Tovuq.
Najot izlab ona Quyon,
Arzi holin etar bayon:
“Ko'rar ko'zim, bolajonim,
Yo'lni kesib o'tgan chog'da.
Oyog'ini tramvay
Bosib ketdi, qoldik dog'da.
Bolam cho'loq bo'ldi, netay?
Yordam bering, sadag'ang ketay”
Voyjonim der: - Tashvish qilmang,
Bizga qo'ying bu yog'ini.
Ola keling bolangizni,
Tuzatamiz oyog'ini.
Bemor keldi ko'p o'tmayoq,
Doktor tikdi yangi oyoq.
Quyon sakrab o'ynadi.
“Rahmat senga Voyjonim!”

“Qani mining, darhol mining ustiga,
Va o'raning issiq pocha-po'stinga.
Ayting manzil, o'zi qay taraf?”
Voyjonim-chi, bitta gapni qaytarar:
-Limpopo, Limpopo, Limpopo!
Daryo turar iloji yo'q o'tguday,
To'lqin sapchir Voyjonimni yutguday.
-Agarda men cho'kib ketsam
Bemorlarning holi netar?
Kimlar parvarish etar?
Shu payt suzib keldi bir kit,
“Minib ol, - der doktor meni
Go'yo ulkan kemadayin,
Yetkazaman darhol seni!”
Kitga minib, olqish aytib,

Bitta gapni soʻzlar qaytib:
-Limpopo, Limpopo, Limpopo!

Qarshisida chiqdi togʻlar,
Choʻqqilarni yoʻlni bogʻlar.
Qoyalari bulut oʻpgan,
Ermaklab der: - Bunday chogʻlar
“Agarda men borolmasam,
Kasal holin soʻrolmasam.
Hayvonlarning holi netar?
Kim shifolab, eʼzoz etar?”
Shu payt yuksak qoyalardan,
Parvoz etib burgut bardam:
-Keling doktor, mining, - deydi
Sayr qilamiz, biling, - deydi!
Voyjonim-chi, qaytalab,
Bitta gapni qaytarar:
-Limpopo, Limpopo, Limpopo!

Shundoq dengiz boʻyida,
Toʻlqinlardan quyida
Tishi olmos Akula,
Sira tolmas Akula
Quyoshga bagʻrin berib,
Suzgichin - yozib, kerib.
Xafa boʻlib yotibdi,
Qumga biroz botibdi.
Sabab uning bolasin,
Koʻkka chiqar nolasin.
Oʻn ikki kecha-kunduz
Tishi ogʻrir tinimsiz.
Shoʻrlik shoʻx Chigirtkaning
Chiqib ketgan yelkasi.
Oʻksib yigʻlar, sakrolmas:
-Doktor tezroq kelsa-chi,
Mehri daryo shifokor
Yetib kelsa qaniydi?
Holimizdan xabar topib,
Malham bersa qaniydi?
Osmon uzra ulkan bir qush uchib keldi,
Qanot qoqib, bulutlarni quchib keldi.
Qush ustida oʻtirsin doktor Voyjonim,
Bosh kiyimni silkitib, soʻzlar quvonib:
-Salom senga! Aziz, qutlugʻ Afrika!
Bolalar quvnashib, shodlikdan yashnar,
Oʻsha qush aylanib qoʻnishga boshlar.
Voyjonim oshiqar omonlik tilab,
Begemot bolasin qornini silab
Navbat bilan bir chekkadan kuzatib,

Barchasiga shokoladdan uzatib.
Har birining kasaliga yarasha,
Isitimasin o'ldirab qo'yar, daraja.
Olashpor yo'lbarsning bolasiga,
Bo'taloqqa - tuyaning ko'z qorasiga,
Hayvonlarning arzandasi -
Jujuqlarga,
Arslonlarning jigarbandi -
Kuchuklarga,
Parvona bo'lib
Kulib-o'rgilib.
Uch kecha, kunduz,
Uyqu nima bilmasdan
Doktor Voyjonim!
Tamaddi ham qilmasdan
Doktor Voyjonim!
Davoladi bechora bolalarni
Endi ular shifo topdi,
Limpopo
Xursand bo'lib, sakrab chopdi,
Limpopo
O'ynab, yayrab saf tortishib turishar,
Limpopo
Sho'xliklari haddan oshib kulishar
Limpopo
Ko'rib qo'ying, Gippopotam,
Kelayotir Zanjibardan
Kilimanjaro o'lkasidan,
Shifo topgan, sog'lom-bardam.
Ular takror qo'shiq aytar,
Qo'shiqlarin jo'shib aytar:
-Shon-u sharaf Voyjonimga,
Qoyil, dilgir doktorga!

G'uncha jurnalidan
Rus tilidan
Tursunboy Adashboyev tarjimasi.